DIVONDA LINGVOMADANIY LIKSEMALARNING ROLI VA O‘RNI

Musayev Isomiddin Saidovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O‘zbek va chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20320021

Annotatsiya: Tilimiz asrlar davomida taraqqiy etgan, o‘ziga xos imkoniyatlar bilan boyitilgan buyuk ne’matdir. U milliy qadriyatlarimiz, tafakkurimiz, ma’naviyatimizni, umuman, mohiyatimizni aks ettiruvchi o‘ziga xos fazilatlarga ega. So‘z va jumlalarimizda milliy o‘zligimiz, madaniyatimiz, dunyoqarashimizning mazmun-mohiyati qalbimiz va qalbimizda aks-sado berib turibdi. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni til orqali saqlash va uzatish, avlodlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni osonlashtirish, uning rivojlanishini tarbiyalash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan nodir hodisa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy birliklar, frazeologik birliklar, mataforalar, mentalitet, kommunikativ.

Kirish Oxirgi paytda til va madaniyat haqidagi tushunchalarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganishga kirishildi. V.V. Vorobiyning yozishicha, “bugungi kunda lingvokulturologiyani ma’lum usullar bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o‘rganadigan, nutqni yaratish va uni tushunishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq qiladigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta’limning bilim egallash, tarbiyaviy va intelektual vazifalarining bajarilishini ta’minlaydigan yangi filologik fan sifatida aytish mumkin. Shunday qilib, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning yaxlit strukturasi sifatida aks ettiradigan majmuaviy fandir”. Ayni paytda ko‘pgina olimlar lingvomadaniyat
shunoslikka qiziqishmoqda. Bu esa uning istiqbolli ekanligidan dalolat berib turibdi. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotining hammaga ma’qul bo‘lgan ta’rifi tilni madaniyat bilan ajralmas bog‘lanishda o‘rganishdadir. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o‘z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o‘rganadi. U avvalombor, ma‘lum bir madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an’ana, udum, taomil, ramzlarini va shu kabi madaniy birliklarini tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taaluqli bo‘lib, ular tilda maishiy taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi.

O‘zbek tilining muhim tarixiy bosqichi bo‘lgan eski turkiy tilni lingvomadaniyat sohasi sifatida o‘rganish, bu davr tilini milliy til prizmasi, orqali o‘ziga xos tarzda ko‘rib chiqishda adib va olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari muhim ilmiy-badiiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Asar yozilgan davrdan beri xalqning mentalitetida, ijtimoiy ongda, shu bilan birga, tilimizning belgilar tizimida, leksik qatlamlarida turli o‘zgarishlar yuzaga keldi. Shu tufayli asar yaratilgan zamon bilan davrimiz orasida yuz bergan ijtimoiy va lisoniy o‘zgarishlarni bir-biridan ayirmagan holda lingvomadaniy jihatdan ko‘rib chiqish muhim tadqiq va tahlil ish bo‘ladi.

Turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek xalqining tarixi etnografiyasi, tili, adabiy merosi – madaniyatini o‘rganishda, turkiy xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotida keng qo‘llanadigan leksemalar, birikmalar, maqol, matallar berilgan bo‘lib, ular madaniyatshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan hali chuqur o‘rganilmagandir. “Devonu lug‘otit turk”dagi turli istilohlarning qanday ma’noda ishlatilayotganini ko‘rsatib berish orqali Mahmud Koshg‘ariy, jahon atamashunosligiga ulkan hissa qo‘shgan, deb ayta olamiz. Shu bilan birga Mahmud Koshg‘ariy ishlatgan atamalarning ma’nolarini aniqlash Devondan keyingi tilshunoslikka oid asarlarning ilmiy darajasini belgilash uchun mezon bo‘ladi. Koshg‘ariy lug‘atida qo‘llangan ko‘pgina atamalar Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” asarida ham ayni ma’noda qayd etilgan. Ta’kidlash

joizki, ba’zi leksemalarning ma’nosi ayrim asarlardagi qo‘llanishi Mahmud Koshig‘ariy qo‘llagan ma’noga mos kelmaydi. Masalan, “Boburnoma” asarida “qarshi” leksemasi Chingizxon zamoni bilan bog‘langan. Mahmud Koshig‘ariyda esa “qarshi”ni saroy ma’nosida deb izohlaydi. Mana shular hisobga olinsa, Mahmud Koshg‘ariy qo‘llagan o‘sha davr turkiylari ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bog‘liq atamalarning mazmunini aniqlash qanchalik dolzarb muammo ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shunga ko‘ra, asarni tilshunoslik va madaniyatshunoslikning barcha jihatlari bilan keng miqyosda o‘rganish va tadqiq etish muhim.

Turkiylar ijtimoiy-madaniy hayotining eng muhim xazinalaridan biri bo‘lgan bu asar qomusiy lug‘at hisoblanadi. Qolaversa, asarni yozishdan maqsad turk tilining arab tili kabi boy ekanligini ko‘rsatish va turklar hukmronlik qilgan joylarda turkiy tilini o‘rganmoqchi bo‘lganlarga yordam berishdir. Binobarin, kitob yozilayotgan davrda turkiy tilda mavjud so‘zlar ham turkiy jumlalarda qo‘llash, ham qomusiy ma’lumotlar berish orqali arab tilida izohlanadi. “Devoni lug‘otit-turk” ushbu izohlari bilan turk madaniyati, tarixi, geografiyasi, etnologiyasi, mifologiyasi, xalq og‘zaki ijodi, tili va adabiyoti haqida ma’lumot beruvchi yirik ensiklopediyaga aylandi. Asar adabiy namunalarga o‘rin berish jihatidan adabiy antologiya xususiyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, “turk madaniyatiga oid ko‘plab materiallar mavjud bo‘lganligi uchun bu asar turkologiyaga asos solganligi e’tirof etildi”. [Ülkütaşır, 1972, -B. 37.]

Ma’lumki, ““inson” konseptosferasi bilish birligi sifatida barcha tillar va madaniyatlar sohiblari uchun universal hodisadir”. [Boynazarov, 2020, –B.14] “Devonu lug‘atit-turk”da tasvirlangan “inson” konseptosferasi xususida ham ana shunday mulohaza yuritish mumkin. Jumladan, “Devonu lug‘atit-turk” asaridagi inson ma’nosida qo‘llanadigan er, kishi konseptlari erkak, er, ayol, bola, uy, oila, qarindoshlik, inson xarakteri, ijtimoiy-ruhiy, ruhiy-fiziologik holatiga xos belgilar va ularni ifodalovchi birliklar kabi komponentlarda o‘z konseptosferasini tashkillashtiradi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asaridagi “inson” tushunchasini ifodalovchi er, kishi konseptlarining izohlari bayon qilinganda, bu tushunchalarning o‘sha davr tilidagi konseptual maydondagi ma’nolari kelib chiqadi va ularni quyidagi toifalarda ko‘rish mumkin: Maishiy tushunchalar (uy-turar joy, xo‘jalik, anjomlar, yegulik, bayram, mehmondorchilik, dam olish); qarindoshlik aloqalari (nikoh, farzand, qarindosh, avlod); insonning jismoniy, psixofiziologik, psixologik tavsifi (badan, sog‘lik, qobiliyat, yumor, samimiylik); his-tuyg‘ular (quvonch-shodlik, muhabbat, g‘am-anduh, qo‘rquv, g‘azab, nafrat); moddiy, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy tushunchalar (moddiy noz-ne’matlar, mehnat, bilim, do‘stlik, mardlik, etika, estetika, ona tili, e’tiqod, insonparvarlik); zamon va makon kategoriyalari (yosh, tug‘ilish, o‘lim, o‘tmish, kelajak).

“Devonu lug‘atit-turk”dan joy olgan xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida lirik she’rlar soni 30 ga yaqin va ularda vasf, ayriliq, murojaat asosiy yetakchilik qiladi. Asarda keltirilgan lirik qo‘shiqlarga xos yana bir xususiyat shuki, ularda mehnatkash xalqga xos kamtarinlik, poklik, ko‘ngillarning beg‘uborligi, samimiylik aniq aks etadi. Lirik she’rlarda oshiqning orzu-istaklari, o‘y-fikrlari, lirik kechinmalar haqidagi tafsilotlar yuksak badiiy talqinda o‘z ifodasini topgan. “Devonu lug‘atit-turk”dagi lirik she’rlar keyingi davr turkiy adabiyotiga ham o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazgan.

Lirik qo‘shiqlar turkiy xalqlar estetik didining nechog‘liq boy ekani, ularning azaldan so‘z san’atiga alohida mehr bilan qaragani, badiiy to‘qimada o‘z davrining eng ildam xalqlari bilan bellasha olish darajasida adabiy zahiraga ega ekanini namoyish etadi. Shuningdek, ushbu qo‘shiqlarda turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri ham namoyon bo‘ladi. Bu esa ushbu xalqning poyetik tahayyuli bevosita ushbu etnos o‘xshatish, istioralarida o‘z aksini topadi. Bizgacha yetib kelgan manbalar ichida ma’shuqa yuzining Oyga o‘xshatilishi ilk bor “Devonu lug‘atit-turk”dagi parchalarda uchraydi. Misol uchun: Tolun ayïn yüzi, [Koshg‘ariy, 1960, – B.40]

She’riy parchani hozirgi o‘zbek tiliga quyidagicha o‘girish mumkin: To‘lin oy kabi yuzi.

“Zamon qaytarilmas, takrorlanmaslik belgisiga ega. Har qanday moddiy jarayon bir yo‘nalishda o‘tmishdan kelajakka qarab rivojlanib boradi”. [Filosofskiy slovar,1991. –S.75]

“Devon”dagi yana muhim qaydlardan biri eski turkiy tilda vaqtni bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqea-hodisalarni nomlovchi leksemalar haqida boy ma’lumotlar mavjudligidir. “Devon”da fasl nomlarini ifodalovchi leksemalari tilga olinadiki, ularning nomlanishi bevosita qadim turkiylarning tabiat, mavsumiy ob-havo va bu jarayondan kelib chiqib, harakatlanishi, mehnat qilishi bilan bog‘liqdir. Yay (Yaz) – yoz. [Koshg‘ariy, 2017, -B.141].

Bu so‘z “yay” fe’lidan kelib chiqqan. Tabiat uyg‘onishidan to xazonrezgi davrlari oraliq muddatini ifodalaydi. Kuz – kuz, kuz fasli. [Koshg‘ariy, 2017, -B.135] Bu so‘z xazonrezgi mavsumi sifatida baholanadi. Qiş – qish fasli; Qiş qonuqı ot – qishning ziynati o‘t, olovdir. [Koshg‘ariy, 2017, -B.136] Qadimgi turkiylarda bir yil to‘rt faslga ajraladi. Bulardan yaz so‘zi hozir iste’moldan chiqqan, o‘rnida “ko‘klam”, “bahor” so‘zlarini ishlatamiz. “Yoz”ni bildiruvchi yay so‘zida tovush o‘zgarishi yuz berib, yazga aylangan. Shunga qaramay, ularning qoldiqlari ayrim so‘zlarimizda uchrab turadi. Masalan, bolalar qo‘shig‘ida kechgan “Läyläk keldi, yaz boldï” jumlasidagi yaz so‘zi “ko‘klam, bahor”ni bildiradi. Yoki hozirgi “yaylaw” so‘zining o‘zagi yay (yoz) bilan bog‘liq: yay+la+ğ/w –“yaylov, yozni o‘tkazadigan, yozlaydigan joy”. Qiyoslang: qïšla+q – “qishloq, qishni o‘tkazadigan, qishlaydigan joy”. Hozir biz qo‘llayotgan yaylaw, qïšlaq so‘zlari tarixan qishda qishloqlarga ko‘chib kelib, yozda esa yaylovga chiqib kun kechiruvchi chorvachilar hayoti bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Qadimgi taqvimga ko‘ra yil yaz (ya’ni ko‘klam) bilan boshlanib, mavsum qïš bilan tugaydi. [Sodikov, 2009. –B.236-237]

“Devoni lug‘otit turk”da shuningdek, turkiy xalqlar urf-odatlari bilan bog‘liq qaydlar ham ahamiyatlidir. M. Koshg‘ariyning bevosita o‘zi tomonidan to‘plangan tarixiy ma’lumotlar turli sohalarga oid bo‘lib, ularning har biri alohida izlanishni talab qiladi. Asarni tadqiq qilar ekanmiz, lug‘atda jamlangan so‘zlar turli kasb-hunar va tematikani tashkil qiladi. Jumladan, M.Koshg‘ariy qadim turkiylarning pardoz-andozi bilan bog‘liq leksemalar haqida ma’lumot berar ekan, shular sirasida qadimda turkiy ayollarning soch va uning parvarishi haqida ham to‘xtaladi. Demak, XI asrdayoq olim ayollarning soch va uni parvarish qilish, sochdan turli go‘zallik yaratish mumkinligini qayd qilgan. Qadimgi turkiy xalqlarda “go‘zallik” tushunchasining ayollarga nisbat berilganligi maxsus go‘zallik ma’budalari mavjudligi va ular go‘zal, qahramon, uddaburon, sarishta ayollar qiyofasida tasavvur etilgani kuzatiladi: Umay ona (Umay ana), Ayizit (Ayızıt), Ko‘pay xotin (Kübey Hatun) . [Eski Türk Kadınlarında Güzellik, 2018; Türk Mitolojisinde Öne Çıkan 37 Tanrı, Tanrıça ve Figür, 2018)] Shuningdek, jisman va ma’nan go‘zallikning tildagi qarshiligi “ko‘rkli” va “ko‘rklilik” so‘zlari bilan ifodalangan. “Devonu lug‘atit-turk”dagi maqolalarda go‘zallik tushunchasi “urag‘ut, xatin-qadin/qatin/kishi” shaklida ayol konsepti bilan bog‘liq holda ifodalanganini ko‘rish mumkin. “Devonu lug‘atit-turk”dagi go‘zallik konseptosferasining asosiy xususiyatlarini asardagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda quyidagicha izohlash mumkin: Ayolning go‘zalligini tavsiflovchi jismoniy, psixofiziologik holatlar (bo‘y-bast, yuz-bosh, ko‘z-qosh, odob-axloq, munosabatlar); qarindoshlik aloqalari (nikoh, er, farzand, qarindosh, avlod); ayolning ijtimoiy maqomi, bezanish (murojaat, sog‘lik, èsh, qobiliyat, yumor, samimiylik); his-tuyg‘ular (quvonch-shodlik, muhabbat, g‘am-anduh, qo‘rquv, g‘azab, nafrat) va boshqalar turkiy tilning Sharqdagi tillar orasida qadimdan mavqeini belgilovchi bu dalil, albatta e’tiborga loyiq. E’tiborga loyiq tomoni shundaki, sharqdagi boshqa tillarga nisbatan turkiy qavmlarga va ularning tillariga alohida diqqat qaratilgan. Buning boisi, turkiy tilning keng hududga tarqalgani edi. Shuning uchun ham bunday e’tiborli tilda badiiy asarlar, yilnomalar yaratilmasligi mumkin emas. Qadimgi turkiy tilning holati, taraqqiyoti to‘g‘risida asl manbalar keng ishonchli va to‘laqonli ma’lumotlarni beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, til o‘rganishda lingvomadaniy birliklarning o‘rni va roli beqiyosdir. Ushbu birliklar haqida o‘rganmay turib ma’lum bir til yoki asar haqida tuliq tassavvurga ega bo‘lish mushkuldir. Ular har bir tilning o‘ziga xosligini, bezagini va xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ular tinglovchi yoki o‘quvchiga alohida kayfiyat bag‘ishlaydi.

Адабиётлар

1. Madayev O., Sobitova T., “Xalq og‘zaki poetik ijodi”. T., “Sharq”, 2010. 37-б.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B., “O‘zbek xalq maqollari”., T.: 2005, 160-б.
3. I. Musayev “Devoni lug‘otit turk”dagi jismoni tarbiya va sport leksemalariga lingvomadaniy nuqtai nazardan yondashuv, “Экономика и социум” №4(95) 2022
4. Ülkütaşır M. Şakir, Büyük Türk Dilcisi Kâşgarlı Mahmut, Türk Dil Kurumu Yayınları, 2. baskı, Ankara, 1972, б. 37.
5. Yuldashev M., Andaniyazova D. Linguopoetics of Zoonims in The Literary Text. Journal of Positive School Psychology. 2022, Vol.6, No.5, 5691-5699.
6. Yuldashev M., Yuldasheva Z. Linguopoetic Features of Repeated Units in Uzbek Folk Epics. Telematique. (Web of Science) Vol 21, No 1 (2022) P.4258–4265.
7. Бойназаров З. Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғати-т-турк» асарида ифодаланган оламнинг лисоний манзараси. Фил. фан. бўй. (PhD) дисс. автореферати. Самарқанд – 2020. 44. 14-бет
8. Кононов А.Н. Изучение “Дивану лугатит турк” Махмуд Кашгарского в СССР // СТ. – Баку, 1973. № 1. – с.3-9
9. Кошгарий М., “Туркий сўзлар девони” (Девони луготит турк), III томлик, II том, Т., “УзССР Фанлар академияси”, 1963. 22-б.
10. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1 том. Тошкент: “Фан”, 1960. – Б. 40
11. Муталлибов С.М. “Дивану лугат ит-турк” Махмуда Кашгарского (перевод, комментарии, исследования). АДД. – Ташкент, 1967.